



Received: May 8, 2025
Accepted: June 23, 2025
Available online: June 25, 2025

Oydin Babaniyozova

O'qituvchi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat uni-
versiteti
Urganch, O'zbekiston

HERMANN HESSE ASARLARIDA INSON VA HAYVON OBRAZLARINING LINGVOPOETIK TALQINI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalqaro Nobel mukofoti sovrindori nemis yozuvchisi Hermann Hessening “Bo‘ri” hikoyasi hamda “Cho‘l bo‘risi” romani lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarlar qahramonlarining ichki dunyosi, til vositalari, metaforik ifoda usullari va muallifning estetik pozitsiyasi qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Asarlarda inson va hayvon obrazlari, shaxsiylik va ijtimoiylik o‘rtasidagi ziddiyat, ramziy elementlar lingvistik va poetik mezonlar asosida yoritiladi.

Mazkur maqoladan ko‘zlagan asosiy maqsad Hermann Hessening “Bo‘ri” va “Cho‘l bo‘risi” asarlarida lingvopoetik tahlil olib borish orqali inson va hayvon obrazlari hamda shaxsiylik va ijtimoiylik mavzusini til va poezik vositalar orqali chuqur anglashni ta‘minlashdir. Ushbu maqsad doirasida bir qancha vazifalar yechimi ko‘zda tutilgan. Xususan, ulardan eng muhimlari Hessening asarlarida qo‘llangan til vositalari va badiiy uslublarni tahlil qilish, hikoya va roman tarkibidagi metafora va ramziy ifodalarni o‘rganish, muallifning estetik pozitsiyasi va uning asar tuzilishi va mavzu rivojiga ta‘sirini aniqlash, shaxsiylik va ijtimoiylik tushunchalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni qiyosiy aspektida tadqiq etish.

Tadqiqot xususiyati uning metodologiyasini belgilab beradi va shu asnosida lingvopoetik yondashuv asosida olib borilib, ya‘ni til va poeziya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Matnlarni sifat jihatidan tahlil qilishda semantik maydon, metafora va badiiy uslub vositalarini aniqlash metodlari qo‘llaniladi. Shuningdek, intertekstual va madaniy kontekstga

Oydin Babaniyozova

Teacher
Urgench State University named after Abu Raykhan
Beruni
Urgench, Uzbekistan
E-mail: oydin.babaniyozova.96@mail.ru
ORCID iD: 0009-0009-5140-4949

A LINGUOPOETIC INTERPRETATION OF HUMAN AND ANIMAL IMAGES IN THE WORKS OF HERMANN HESSE

ABSTRACT

This article provides a linguopoetic analysis of the German writer Hermann Hesse’s short story “Wolf” and novel “Desert Wolf”. The internal worlds of the characters, linguistic tools, metaphorical expression methods, and the author’s aesthetic position are studied through a comparative analysis. The works illuminate the images of humans and animals, the conflict between individuality and sociality, and symbolic elements based on linguistic and poetic criteria.

The primary aim of this article is to conduct a linguopoetic analysis of Hesse’s “Wolf” and “Desert Wolf” in order to gain a deep understanding of the themes of human and animal imagery as well as individuality and sociality through linguistic and poetic means. Within this goal, several tasks are set, including analyzing the linguistic tools and artistic styles used in Hessening’s works, examining the metaphorical and symbolic expressions in the story and novel, identifying the author’s aesthetic position and its influence on the structure and thematic development of the works, and comparatively investigating the conflict between the concepts of individuality and sociality.

The methodology of the study defines its distinctive character. It is carried out based on a linguopoetic approach, which focuses on exploring the interrelationship between language and poetry. Qualitative text analysis methods such as semantic field analysis, metaphor identification, and the study of stylistic devices are employed. Additionally, intertextual and cultural contexts

e'tibor qaratiladi. Tahlil natijasida Hessening metaforik tili inson va hayvon obrazlarini chegaralarsizlashtirib, ularning o'rtasidagi mavjud murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Bo'ri obrazining ramziy ma'nosi — tabiiy instinkt, ijtimoiy chetlanish hamda mavjudotning ekzistensial ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Til vositalari, jumladan takrorlash, paralellizm va tasviriy ifoda asarlarning falsafiy va hissiy jihatlarini kuchaytiradi. Qiyosiy tahlil ikki asarda ham shaxsiylik va ijtimoiylikning ziddiyatini o'xshash tarzda ko'rsatadi, bu esa muallifning estetik qarashlarini yaqqol ifodalaydi.

Xulosa shuki, Hermann Hessening "Bo'ri" va "Cho'l bo'risi" asarlari lingvopoetik vositalar orqali inson va hayvon obrazlaridagi murakkab mavzularni chuqur ifoda eta oladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, metafora va ramzlar muallifning asar tuzilishi va mazmunini yaratishda markaziy rol o'ynaydi. Ushbu maqola zamonaviy nemis adabiyotida til va poeziya o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda muhim ilmiy hissa bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Hermann Hesse, lingvopoetika, "Cho'l bo'risi", "Bo'ri hikoyasi", metafora, ramz, ichki ziddiyat, qiyosiy tahlil, paralellizm, ruhiy ziddiyat.

KIRISH

Mustaqillik yillarida bevosita tarjimaga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Asliyatdan tarjima qilinib, o'zbek o'quvchisi qo'lga yetib borayotgan asarlar sonining ortayotgani kishini quvontiradi. Ushbu yillarda nemis tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima bilan shug'ullanayotgan yana bir taniqli tarjimon Mirzaali Akbarov Hermann Hessening "Cho'l bo'risi" (2006) romanini tilimizga o'girdi [Hesse, 2005; 34]. Asarda jamiyatga singishib keta olmayotgan Byurger- cho'l bo'risi fojeasi, qahramon Harri hayotida cho'l bo'risining zohiran nomoyon bo'lishi, inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat, begonalashuv oqibatlari hamda qahramon ichki olami badiiy bo'yoqlarda ochib berilgan. 2007-yil may oyida Yevropa tarjimonlari kollegiyasi taklifiga ko'ra qilingan safari chog'ida Mirzaali Akbarov Gyotening "Maximen und Reflexionen" kitobi tarjimasiga ilk bor qo'l urgan edi. "Hikmatlar xazinasini" nomi bilan qilingan tarjima tom ma'noda Gyote hikmatlari xazinasidan olingan bir debochadir [Goethe., 2008; 45]. Yosh tarjimonlarning mazkur sohaga dadil kirib kelayotgani davr talabi. Biroq nemis tilidan qilinayotgan tarjimalarni kuzatayotib, ulardagi kamchiliklar haqida ham gapirishimiz, asar qadr-qimmatini, tilimiz jozibasini saqlab qolishga e'tibor qaratishimiz lozimligini anglaymiz. Dunyoning har bir burchagida yaralgan va yaratilayotgan o'lmas, buyuk asarlar bilan jahon adabiyotining sahifalarini boyitish bugungi davr adabiyotchilari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Fikrimizning dalili sifatida

are taken into account.

The analysis shows that Hessening's metaphorical language blurs the boundaries between human and animal images, reflecting the complex relationships between them. The symbolic meaning of the wolf image manifests as natural instinct, social alienation, and an existential expression of being. Linguistic tools, including repetition, parallelism, and imagery, intensify the philosophical and emotional aspects of the works. The comparative analysis reveals a similar depiction of the conflict between individuality and sociality in both works, clearly reflecting the author's aesthetic views.

In conclusion, Hermann Hesse's "Wolf" and "Desert Wolf" effectively express complex themes within human and animal imagery through linguopoetic means. The study demonstrates that metaphors and symbols play a central role in shaping the structure and content of the author's works. This article contributes significantly to understanding the interconnection between language and poetry in contemporary German literature.

Key words: Hermann Hesse, linguopoetics, Desert wolf, The Story of the Wolf, metaphor, symbol, internal conflict, comparative analysis, parallelism, psychological conflict.

bugungi kundagi tarjimalar, xususan nemis tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan nemis tiliga qilinayotgan tarjimalar talaygina ekanligini aytib o'tmoqchimiz. Bu borada O.Sharafiddinov, Y.Egamova, R.Abdullayeva, M.Akbarov, O.Ostonov kabi olim-u, mutarjimlarning tarjimalari tahsinga loyiqdir. O'zbek kitobxonlari Hermann Hesse'ning "Jahon adabiyoti kutubxonasi" asarini O.Sharafiddinov tarjimasida [Sharafiddinov., 2010; 87] va "Cho'l bo'risi", "Nyurenbergga sayohat" asarlarini hamda tanlangan hikoyalari M.Akbarov tarjimasida [Hesse., 2002; 53], Fris Vyurtlening "Andijon shahzodasi" asarini Y.Egamova tarjimasida [Vyurtle., 2012; 75] o'qishga muayassar bo'lgan bo'lsalar, o'z navbatida nemis kitobxonlari buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning tanlangan hikoyalar toplami "Der Granatapfel" [Gulom., 2014; 34].

Sharq donishmandligiga oid, buyuk ipak yo'li haqidagi "Geschichten entlang der Seidenstrasse" (Weisheiten des Orients) Oybek Ostonov, "Akademnashr" Verlag. Taschkent-2013), hikoyalr to'plami bilan shuningdek, sevimli akademik shoirimiz G'.G'ulomning jahon sahnasiga chiqqan "Shum bola" qissasini mutarjim Oybek Ostonov tarjimasida o'qishga muayassar bo'ldilar. Dunyodagi turli xil tillarda yozilgan adabiy meros durdonalari tarjima otliq oltin ko'priq orqali bir birlarining uylariga mehmon bo'lishligi har bir millat adabiyotining gullab yashnashida chuqur xalqaro moxiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODLARI

Soha adabiyotlari bo'yicha ilk kuzatuvlarning o'zidanoq lingvopoetikaning fan sifatida shakllanishi bir necha o'n yillar davom etganiga amin bo'lish mumkin. Uning asoschisi haqli ravishda taniqli tilshunos V.V.Vinogradovning (1895-1969) na-faqat lingvistik va she'riy tadqiqotlarga, balki umuman filologiyaga qo'shgan his-sasini aytish joiz. V.V.Vinogradov alohida filologik fanni yaratish zarurligi haqidagi g'oyani rivojlantiradi va lingvopoetikani "badiiy adabiyot tilining ilmiy faniga teng deb baholgan" [Александровна, 2020]. V.V.Vinogradov lingvopoetik tadqiqotining vazifasi adabiy-badiiy ijod asarida til birliklarining estetik vazifasini o'rganishdan iborat. Tadqiqotlar natijasida lingvistik va adabiy stilistikaning kesishmasida ikki yondashuvning yaqinlashishi natijasida filologiyaning yangi tarmog'i- lingvopoetika paydo bo'ldi, uning predmeti badiiy asarda qo'llaniladigan lingvistik vositalarning yig'indisi.

Hermann Hesse XX asr nemis adabiyotining yetuk namoyandalaridan biridir. Uning asarlarida inson ruhiyati, shaxsning jamiyat bilan ziddiyati, hayotiy izlanish va falsafiy mushohadalar asosiy o'rin egallaydi. "Cho'l bo'risi" (Der Steppenwolf, 1927) romani hamda nisbatan kam tanilgan "Bo'ri hikoyasi"da ham bu tendensiyalar aniq ko'zga tashlanadi.

H.Hesse XX asr nemis prozasining intellektuallikni tarannum etgan, asarlari jahonda eng ko'p mutolaa etiladigan mashhur adibi. Bugungi kunda uning asarlari eng ko'p mutolaa qilinadigan olmon yozuvchilardan sanaladi. Uning qator roman, qissa, hikoyalari, she'rlari, siyosiy, adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlari chop etilgan. Ular orasida, ayniqsa, "Cho'l bo'risi", "Marjonlar o'yini", "Demian" kabi romanlari dovrug' qozongan. "G'ildiraklar ostida" romani, "Nyurnbergga sayohat" safarnoma-

si, “Kurortdagi kishi” qissasi va boshqa ko‘pgina asarlari ham shular jumlasidan-dir. 1946-yilda ushbu asarlari jahon arenasida qadr topib, H.Hesse Shvetsiya Qirol-lik akademiyasi tomonidan *“insonparvarlikning mumtoz g‘oyalarini o‘zida tobora yaqqol namoyon etayotgan jo‘shqin ijodi, shuningdek, yorqin uslubi uchun”* Nobel mukofotiga munosib topildi. Shu yilning o‘zida unga Gyote mukofoti, 1955-yilda esa nemis kitob sotuvchilar tomonidan ta‘sis etilgan “Tinchlik” mukofoti berilgan bo‘lsa, bir yil so‘ngra yozuvchi nomiga ta‘sis etilgan “Hermann Hesse” nomli mukofot uning shuhratini yanada oshirdi. Hermann Hesse 1877-yil 2-iyulda Kalv (Vyurttemberg)da Yohannes Hesse va Mariya Gundert oilasida ikkinchi farzand bo‘lib dunyoga kelgan edi. Otasi kelib chiqishiga ko‘ra boltiqbo‘yilik nemis, onasi shveysariyalik mission-erlar xonadoniga mansub edi. Hessening otasi ma‘lumotli bo‘lib, avvaliga Hindis-tonda qaynotasi Hermann Gundertning yordamchisi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, keyinchalik Kalvda noshirlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Garchi Hesse umrining talaygina qismi chet ellarda o‘tgan bo‘lsa-da, u o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanini ulkan qalb ila sevgan. Butun umri davomida shu bilan yashagan Hesse: *“Agar men shoir, yozuvchi sifatida o‘rmon, daryo, qir-adiru ko‘kalamzorlar, kashtan soylari yoki archazorlar haqida yozgan bo‘lsam, bilingki, ular Kalvning qalin o‘rmoni, Nagold daryosi, ajoyib kashtanzorlari va archazorlaridir. Bularning barchasi, hattoki bozor maydoni, ko‘prik va ko‘chalar ham mening kitoblarimdan joy olgan. Men Bremen, Neapol, Vena, Singapur kabi dunyoning go‘zal va ulkan shaha-rlarida bo‘ldim. Biroq men ko‘rgan hamda bilgan shaharlar orasida eng go‘zali Na-gold bo‘yida joylashgan mo‘jaz go‘sha-Kalv shahri bo‘lib qolaveradi...”*, degan edi.

H.Hesse nafaqat mashhur yozuvchi, balki hassos shoir va musavvir ham bo‘lgan. H.Hessening ilk kitobi 1899-yilda nashr etilgan-“Romantik qo‘shiqlar” nazmiy to‘plami bo‘lib, undagi she‘rlar soddaligi, samimiyligi va ohangdorligi bi-lan ajralib turadi. Adib ko‘hna Sharq olamiga, Sharq adabiyoti va falsafasiga alo-hida muhabbat bilan munosabatda bo‘lgan, xususan, hind va xitoy mifologiyasi unda katta qiziqish uyg‘otgan. Shu o‘rinda uning 1911-yilning kuzida Hindistonga safari natijasida yozilgan “Sidhartha” romani (“Hind dostoni”) ko‘hna Sharq falsafasi va ma‘naviyati e‘tirofining mahsuli ekanini ta‘kidlash joiz. H.Hessening yana bir mash-hur asari-“Marjonlar o‘yini” romanida Sharq va G‘arb donishmandligini birlashtirib, sintez usulini qo‘llashga muvaffaq bo‘ladi. Adibning ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda yaratilgan asarlaridan biri- “G‘ildiraklar ostida” nomli romanida qobiliyatli bir o‘quvchining fojiali taqdirini ochib berish orqali jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddi-yatlar, jumladan, jamiyat, maorif va maktabning yosh avlod tarbiyasi oldidagi yuksak burch va mas‘uliyati kabi dolzarb masalalar xususida fikr yuritiladi. “Nyurnbergga sayohat” safarnomasi va “Kurortdagi kishi” qissasi ham mazkur yo‘nalishda yaratil-gan asarlar sirasiga kiradi. Safarnomada yozuvchining 1924-yilning kuzida Tessindan Nyurnbergga qilgan ikki oylik sayohati qiziqarli tarzda bayon etiladi. Qissaga esa un-ing Syurix yaqinidagi kurort shaharcha Baden bilan bog‘liq xotiralari asos qilib olin-gan. Ushbu asar mazmun-mohiyatiga ko‘ra, muallifning o‘z shaxsiy muommolari, ruh bilan vujud orasidagi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar haqida odatdagi badiiy to‘qimalar vositisida emas, balki avtobiografik qissa shaklida hikoya qilishga

bo'lgan ilk urinish sifatida taassurot uyg'otadi. M.Akbarov H.Hesse asarlariga bu qadar jiddiy va ketma-ket murojaat etayotgani bejiz emas. Zotan, H.Hesse nemis va shveysar adibi, shoiri, adabiyotshunosi va publitsisti, o'zining ko'plab roman, qissa va hikoyalarini, she'rlarini, siyosiy, adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlarini nemis tilida yaratgan. Uning kitoblari dunyo miqyosida 55 tilda 100 milliondan ortiq nusxada chop etilgan. Shuni ham ta'kidlashni istardikki, til va uslub jihatidan o'ziga xos, yuksak did bilan yozilgan jahon durdonalaridan hisoblanuvchi mazkur asar tarjimai mu-tarjimdan katta mahorat va bilimni talab qilishi tabiiydir. "Cho'l bo'risi" romanini tarjima qilishda bunday mas'uliyatli vazifani Mirzaali Akbarov sharafla bilan uddalagan, desak, yanglishmaymiz. Negaki, tarjima matnining tili ravon, keraksiz bejamlardan holi, oson va yengil o'qiladi. O'quvchilarga yengillik tug'dirish uchun kitob oxirida asarda qo'llanilgan murakkab so'z va birikmalar, tarixiy nom va jug'rofiy atamalar-niing izohlari ilova qilingan.

Ma'lumki, H.Hesse hayotlik chog'larida, asarlarida haqiqat poetikasi va til sofligiga erishishga qat'iyat bilan intilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tarjimoni adibning mazkur har ikki mezon bo'yicha yondashuviga erishishga astoydil harakat qilganini qayd etish o'rindir. Kitobning o'zbekcha nashriga so'zboshi yozgan Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi attashesi Raban Rihter o'z nutqida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan ushbu roman tarjimasining ahamiyatini quyidagicha baholaydi: *"Birinchidan, o'zbek kitobxoni uchun nafaqat olmon adabiyoti, balki jahon adabiyotiga ham mansub mumtoz asarlardan biri bilan oshno bo'lish, qolaversa, Hermann Hessening ruhiy-ma'naviy dunyosi, shuningdek, uning ijodi bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'ildi"*.

Bu fikrlarga to'la qo'shilgan holda, yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish joiz. Ya'ni, nemis adibi ijodiy dahosining biz uchun dolzarb ahamiyati shundaki, H.Hesse butun bashariyatning istiqboli dunyo mamlakatlarining hamkorligi, G'arb va Sharq xalqlari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik, mafkuralararo murosa va sabr-toqat, diniy bag'rikenglik, insonlarning o'zaro mehr-oqibati va ahilligiga bog'liq ekanini oldindan ko'ra olgan, ayni shu g'oyani o'z ijodida bir umr targ'ib-tashviq etgan. Ayniqsa, "Cho'l bo'risi" romani G'arb va Sharq g'oyalari bilan sug'orilgan, ular o'rtasidagi chambarchas aloqalarni o'zida mujassam etgani bilan ajralib turadi. Xuddi shu jihati bilan ham ushbu asar bizga yaqin va qadrdon.

Umuman, Herann Hessening badiiy ijod olami butun dunyo afkor ommasi qatori o'zbek kitobxoni uchun ham qiziqarli, tushunarli va ahamiyatlidir. Zero, Yurt-boshimiz ta'biri bilan aytganda, *"hayotning o'zi bizga turli millat, e'tiqod va din va-killari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik hukm surgan sharoitdagina umumiy xonodonimiz, farzandlarimiz kelajagini qurish mumkinligini ko'rsatib turibdi"*.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi, -deb yozgan edi ulug' olmon shoiri va mutafakkiri Yohann Volfgang Gyote. "Men bu fikrni, kishi dunyo madaniyatini, ma'naviyatini va adabiyotini qanchalik chuqur o'rgansa, o'zligini ham shu qadar teran anglay oladi, deb tushundim", -deb yozadi Mirzaali Ak-

barov “Cho‘l bo‘risi” asar tarjimasida [Hesse., 2015; 54]. Ilk bor 1927-yilda bosilib chiqqan “Cho‘l bo‘risi” romani teran psixologik, ruhiyat manzaralari aks etgan asar bo‘lib, muallifga olamshumul shuhrat keltirdi. “Cho‘l bo‘risi” da o‘z-o‘zini tahlil qilish va hal etilmagan ma‘naviy-ruhiy ziddiyatlarni yengish yo‘lidagi sa‘y-harakatlar qalamga olinadi. Aynan shu o‘rinda adibning “Narziss und Goldmund” romanida keltirilgan ham aql va yurak o‘rtasidagi suhbatni o‘z-o‘zini isloh qilish, ya‘ni hardoin ham faqat aqlga muvofiq ish ko‘rilmasdan, yurak amriga ham quloq solishga da‘vat qiladi insonni: “Aql va muhabbat har xil materiallardan yaratilgan, aql kishilarni tugunlarga bog‘laydi va hech narsaga tavakkal qilmaydi, sevgi esa barcha tugunlarni yechadi va hamma narsaga tavakkal qiladi” [Jan&S.Ashraf&Khan, 2022; 76] -deydi u. Unda muallifning avvalgi asarlarida ozmi-ko‘pmi aks ettirilgan Ruhga murojaat etish uslubi o‘zining yakuniy hamda to‘laqonli ifodasini topgan. Yozuvchi Tomas Mann ushbu roman haqida shunday degan edi: “Cho‘l bo‘risi” eksperimental dadillikda “Uliss” va “Faux Monnayeurs” singari asarlardan qolishmaydigan kitob ekanligini aytib o‘tirishga hojat bormikin? *“Cho‘l bo‘risi” menga anchadan buyon haqiqiy kitob mutolaasi nimaligini qaytadan o‘rgatgan asardir.*

Shunisi qiziqki, Germaniyaning o‘zida Hesse ijodiga adabiy tanqidning munosabati aksariyat hollarda salbiy bo‘lgan. Adib nomi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, “Cho‘l bo‘risi” romani uchun 1946-yili unga Nobel mukofoti berilgandan so‘ng, butun dunyoga tanildi. Harvard universitetining sobiq professori Timoti Liri shunday degan edi: “Cho‘l bo‘risi”ning yakuniy qismi bebaho darslikdir.

Ulug‘ adib Hermann Hesse 1962-yil 9-avgust kuni 85 yoshida Montanola (Shveytsariya)da vafot etdi. Uning qoldirgan boy ma‘naviy merosi hali ko‘plab avlodlar qalbidan ham munosib o‘rin olishiga shak-shubha yo‘q [Jahon adabiyoti, 2013; 58]. Mutarjim Mirzaali Akbar shunday yozadi: “Hermann Hessening yuqorida juda ko‘p bora tilga olingan “Cho‘l bo‘risi” asarini mutolaa qilib, undan shu qadar mutaasir bo‘ldimki, oqibatda uni o‘zbek tiliga tarjima qilishga ham jur‘at etdim.” Albatta til va uslub jihatidan o‘ziga xos, yuksak did bilan yozilgan asar tarjimasini mutarjimdan katta mahorat talab qilishi tabiiy. Shubhasiz, asar tarjimasini jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelingani ayni haqiqat. Shu o‘rinda ulardan atigi ikkitasiga, ya‘ni muayyan so‘z va iborlar tarjimasiga to‘xtalib o‘tgan tarjimon. Asliyatga murojaat qilamiz: Giottosche Engelscharen aus einem kleinen blauen Kirchengewölbe in Padua. Ushbu jumlaning birinchi marta tarjima qilayotganida Giottosche Engelscharen iborasidagi “Giottosche” so‘zini ko‘rib, tarjimon ko‘nglida bu mabodo otpechatka (matbaa xatosi) emasmikin, balki “Gottische” bo‘lishi lozimdir, degan shubha tug‘ilgan. Bir hamkasb do‘stiga shu haqda murojaat qilganida, u ham ushbu fikrini maqullagan. Xullas, dastlabki xomaki tarjimada mazkur jumla shunday yangragan: “Paduadagi kichkinagina moviy tusli cherkov gumbazidan tushgan tangri farishta-maloikalari”, ya‘ni “Giottosche”ni “Gottische” bo‘lsa kerak, degan o‘y bilan xudoga mengzab, “tangri” deb o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Biroq keyingi tinimsiz izlanishlar natijasida mazkur so‘z tarjimasining butunlay noto‘g‘ri bo‘lganiga amin bo‘ladi, ya‘ni “Giottosche” so‘zi muallif tomonidan italyan musavviri Jotto di Bondone (1266-1337)ga nisbatan qo‘llanilgan ekan. Eng so‘nggi variantda Giottosche Engelscharen iborasini,

nihoat “Jottoning farishta-maloikalari” deb tarjima qilgan.

Shunga o‘xshash yana bir anglashilmovchilik olmoncha “Bürger” so‘zi bilan sodir bo‘lgan. Ma‘luki, ushbu so‘z polisemantik (ko‘p ma’noli) bo‘lib, tarjimada “fuqaro”, “byurger” (shaharlik), “meshchan” kabi ma’nolarni anglatadi. Asliyatdan misol keltiramiz: “...den ich aber im Traum mit Bürger” verwechselte. Ilk tarjimada ushbu jumla quyidagicha yangragan: “...tushimda uni fuqaro bilan almashtirib yuboribman”. Bir qarashda hech qanday xatoga yo‘l qo‘yilmagandek, jumla tarjimasi binoyidek. Taassufki, mutarjim ham “Bürger”ni “fuqaro” bilan almashtirib qo‘yibdi. Natijada jiddiy xatoga yo‘l qo‘yilgan: “Bürger” “fuqaro” emas, balki olmon shoiri Gotfrid Avgust Byurger (1747-1794) bo‘lib chiqdi. Bunga olmon tilida ko‘proq atoqli otlar, nomlar, umuman otlarning bosh harf bilan yozilishi sabab bo‘lgandir, ehtimol. Boshqa aksariyat tillarda bunday xususiyat mavjud emas. Umuman, tarjimada tilni bilishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Tarjimondan chuqur bilim, yuksak mahorat, ta’bir joiz bo‘lsa, zargarona mahorat talab etiladi. U jahon tillarini yaxshi bilishi, shuningdek, dunyodagi boshqa tillardan, ona tili, adabiyot, tarix, san’at, qo‘yingki, dunyoviy va diniy ilmlardan ham yaxshi xabardor bo‘lmog‘i lozim. Tarjima- biror asarning boshqa bir tildagi “so‘zma-so‘z” bayoni emas, bil’aks, unda mutarjim asliyat ruhini saqlay olishi, avvalo, uni o‘zi teran his etib, o‘quvchiga yetkazishi, unga “yuqtira” olishi kerak. Tasavvur qiling, agar yozuvchi o‘z asarini yozayotganda yig‘lamagan bo‘lsa, uni o‘qiyotgan kitobxonning ko‘zlariga yig‘i qayoqdan kelsin. Tarjimon xususida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin. Mutarjim asar tarjimasi jarayonida dastavval o‘zi to‘lqinlanmog‘i lozim. Agar u asardagi voqealar girdobiga sho‘ng‘ib, qahramon ruhiga kirmas ekan, uning bajargan ishi kitobxon qalbiga, ongiga borishi dargumon. “Cho‘l bo‘risi” romanini olmon tilidan o‘zbekchaga o‘girish jarayonida tarjimon aynan mana shunday holatlarni o‘z boshidan kechirgan. Yana tasodifni qarangki, roman bosh qahramoni- Harri Haller 47 yoshda, mutarjim ham asarni qirq yetti yoshida tarjima qilgan.

“Inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi”, deb yozgan edi Gyote. “Men bu fikrni, kishi dunyo madaniyatini, ma’naviyatini va adabiyotini qanchalik chuqur o‘rgansa, o‘zligini ham shu qadar teran anglay oladi, deb tushundim“ [Akbarov, 2015; 68].

Darhaqiqat, mazkur roman Hesse ijodining durdonasi hisoblanadi. Adib ushbu asar ustida 1924-1927 yillar mobaynida ishlagan va u kitob holida dastlab Fisher nashriyotida 1927-yilning yozida-yozuvchi 50 yoshga to‘lgan chog‘ida bosilib chiqqan. Asarning yaratilishi ko‘p jihatdan adib o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida o‘z boshidan kechirgan ruhiy inqiroz bilan bog‘liqdir. Rut Venger xonim bilan bo‘lgan nikohning barbod bo‘lishi, ijodiy ishlarning majburan to‘xtab qolishi, o‘sha davrdagi pul qadrsizlanishi va boshqa iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq tang ahvol, shuningdek, Germaniyadagi siyosiy vaziyat-bularning barchasi yozuvchini tushkun bir holatga, boshi berk ko‘chaga olib kiradi. U o‘zini chindan ham yolg‘iz, horg‘in va holdan toygan “cho‘l bo‘risi” yanglig‘ his eta boshlaydi.

Biroq yana shuni alohida ta’kidlash joizki, “Cho‘l bo‘risi” yozib qoldirgan esdaliklar yolg‘izlanib qolgan nevrotik xastaning shunchaki “patologik yozishmalari”

gina emas, balki yanada muhimroq bir narsaki, u muayyan davr hujjati, “davrxastaligi”, ya’ni “Haller mansub bo‘lgan avlod chalingan nevroz kasalligi tarixi” hamdir. Hesse ana shu xastalik alomatlarini chuqur tahlil qilib, ayovsiz fosh etadi. Romanining so‘ngso‘zida shunday satrlar bor: “Men, albatta, kitobxonlarga ushbu qissamni qanday tushunishlari xususida maslahat bera olmayman va bermoqchi ham emasman. Har bir o‘quvchi undan o‘ziga kerakli va foydali xulosani o‘zi chiqarib olaversin! Cho‘l bo‘risi haqidagi hikoya, garchi xastalik va tanglikni tasvir etsa-da, biroq bu xastalik o‘limga olib bormaydi, bu tanglik tanazzul emas, balki aksincha: shifo, davo, muolajadir.”

“Cho‘l bo‘risi” romanida G‘arb va Sharq g‘oyalari, G‘arb va Sharq falsafasi, shu bilan bir qatorda insonning o‘z murakkab “men” iga bo‘lgan quvnoq va vazmin munosabati, o‘z-o‘zini bilish va anglash, o‘z-o‘zini topish sari konsepsiya yorqin ifodasini topgan. Bu esa Hessening Sharqqa, Sharq falsafasi va an‘analariga azal-azaldan ixlosi hamda hurmati sarbaland bo‘lganligidan dalolatdir. “Cho‘l bo‘risi”-teran mazmun va chuqur falsafiy mushohadalarga boy psixologik asar bo‘lib, tili ham shunga yarasha murakkab, biroq bu holat asarning kitobxon tomonidan yengil va ravon o‘qilishiga monelik qilmaydi.

“...Men butun bir asrlik olmon adabyoti bilan shu qadar batafsil tanishib chiqdimki, -deb yozadi Hermann Hesse o‘zining “Jahon adabiyoti kutubxonasi” nomli maqolasida, -hatto mutaxassislar ham u bilan menchalik keng tanishmagan bo‘lsalar kerak. Bir qismi allaqachonlar eskirib ketgan bu kitoblardan men uchun benihoya qadrdon bo‘lgan jonajon ona tilim – olmon tilining muattar bo‘yi ufurib turadi. Bu til ayni XVIII asrda ozining gullab yashnash davriga qadam qo‘yish arafasida turgan edi. Olmon tilini men ana shu majmualardan, ana shu chang bosib yotgan romanlaru qahramonlik dostonlaridan o‘rganganman.”

O‘zini u yoki bu millat nomoyondasi deb bilgan har bir kishi uchun Hessening quyidagi fikrlari ham ibratomuzdir: “O‘z tilini yaxshi bilmagan, uni sevib ardoqlamagan, parvarishlamagan va himoya qilmagan xalqning shoiri bo‘lish uyatdir.” Chindan ham Hesse asarlaridan ko‘p narsani o‘rganish mumkin. Uning tili shirali, ta’sirchan, kamalak yanglig‘ turfa bo‘yoqlarga, tagdor, nozik qochirimlarga, ramzlar, o‘tkir iboralarga, teran mazmun va falsafiy mushohadalarga, fantaziyalarga boy. Bundan tashqari, adibning har bir asari zimmasidagi “yuk” nihoyatda salmoqli. Yozuvchi Hermann Hessening butun hayotini ham bag‘rikenglik va sabr-qanoat bilan yashashning namunasi, deb atash mumkin. Adib butun umri mobaynida o‘z ijodiga suyanib yashadi. U asarlarida ilgari surgan butun dunyoda tinchlik, xavfsizlik, hamkorlik, ahillik va hamjihatlikka erishish go‘yalariga bugun jahondagi barcha xalqlar, el-elatlar intilib yashayotganining shohidi bo‘lib turibmiz. Bu esa yozuvchi ijodining umrboqiyligiga yana bir dalildir. Shunisi qiziqki, Germaniyaning o‘zida Hesse ijodiga adabiy tanqidning munosabati aksariyat hollarda salbiy bo‘lgan. Adib nomi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida Nobel mukofotiga erishgach, dunyoga tanildi.

Milliy adabiyotlarning taraqqiyoti ularning bir-biri va jahon adabiyoti bilan aloqalari mustaqillik davriga kelib chuqur xalqaro moxiyat kasb etdi. Bu borada jahon adabiyoti tajribaga egaligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Buyuk olmon

adibi I.V.Gyote o‘z kotibi Ekkermanga yozgan maktubida o‘rinli qayd etganidek “Biz fransuzlarning, inglizlarning va boshqa xalqlar adabiyotlarini bilishimiz yaxshi, bundan faqatgina jahon adabiyoti foyda ko‘radi, chunki adabiyotlarning o‘zaro bog‘liqligi zanjir yanglig‘dir, zotan zanjirning bir bo‘lagi bo‘lmasa, orada uzilish paydo bo‘ladi”. Adabiy aloqalarning muxim komponenti xisoblanmish badiiy tarjima adabiy ta‘sir va adabiyotlar mundarijasini boyitish hamda kengaytirishda muxim omil hisoblanadi. Tarjima tufayli buyuk so‘z ustalari o‘zlari yaratgan san‘at asarlari bilan faqat o‘z xalqlarinigina hushnud etib qolmasdan, balki boshqa millatlarning huzuriga ham tashrif buyuradilar. Ana shunday so‘z ustalaridan biri, Germaniyaning sevimli farzandi Hermann Hessening “Peter Kaminzind”, “Demian”, “Siddhartha”, “Cho‘l bo‘risi”, “Marjonlar o‘yini” kabi asarlari jahon adabiyotining boyligiga aylandi. Uning hayotligidayoq asarlari jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilindi. O‘zining 40-50 yoshlarida Hermann Hessechalik ijodi gullab yashnagan, san‘at cho‘qqisiga erishgan ijodkorni nemis adabiyoti tarixida topish mushkul. Amerika va Osiyoda millionlab kitobxonlarga ega. Germaniyada Hermann Hessening asarlari nashri 1979-yilga kelib, 5 million nusxaga yetdi. “Zurkamp” nashriyoti har oy Hermann Hesse asarlarining 30000 nusxada nashrdan chiqaradi [Michels, 1979; 98]. Hermann Hesse o‘sib kelayotgan avlod uchun ulkan ta‘sir kuchiga ega, uning kitoblari yoshlarni juda qiziqtiradi. Birinchi navbatda o‘smirlar uning asarlarini o‘zlari uchun hayot mazmuni to‘g‘risidagi doimiy dolzarb masalalarini yechish maxoratini talab qiluvchi da‘vat sifatida qabul qiladilar. Rivojlanish kuchayib borayotgan asrda etika va estetika, an‘analara va novatorlik, kelajak istiqboliga ishonch Hermann Hesse asarlarida o‘z aksini topgan. Hermann Hessening asarlari nafaqat olmonzabon mintaqada balki, yetti iqlimda o‘z o‘quvchilarini topgan baxtli adibdir. Asarlari yer yuzining 60 tilida 100 million nusxada (shundan chorak qismi Germaniyada) chop etilishi, asarlari tarjimasi uchun Hermann Hesse stipendiyasi ta‘sis etilganligi, 2002-yil 2-iyulda Germaniyaning Kalv shahrida Hermann Hesse tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlanib 9 hafta davomida “Hermann Hesse 2002” festivalining o‘tkazilishi uning ijodi umumbashariy, mashhur va manzurligidan dalolatdir [www.Hermannhesse.de].

Kalv shahri o‘zining buyuk o‘g‘li Hermann Hessegga 1990-yilda Folker Mixels konsepsiyasiga binoan va Xayko Rogge tomondan bezalgan boy muzeyni tashkil etdi [www.Hermann-hesse-museum.de]. Kalv shahrida Hermann Hesse hayoti va ijodiga bag‘ishlangan Yevropada eng katta ekspozitsiya doimo tashrif buyuruvchilar bilan gavjum. Hermann Hessening Kalvdagi 10 xonali muzeyida 20 asrning eng ko‘p o‘qiladigan nemis yozuvchisi Hermann Hessening hayoti va ijodi, jamiyatdagi o‘rni haqidagi boy material to‘plangan. Taqdir taqozosi bilan Hermann Hessening kasalligi tufayli unga rasm chizishni tavsiya etishadi. Hermann Hesse rasm chizish texnikasining har xil turlarini sinab ko‘rdi va akvarel ranglarda chizishni ma‘qul topdi. Umrining oxirigacha u 3000 ga yaqin akvarellarni yaratdi [www/Hermann-hesse suhrkamp.de]. Ularning ko‘pchiligi butun dunyo bo‘ylab tashkil etilgan ko‘rgazmalarda keng ommaga namoyish qilingan. Hermann Hesse vafotidan so‘ng uning akvarellari ko‘rgazmalari hamma yerda: Tokioda (1976 va 1996), Parijda (1977), Nyu-Yorkda va Monrealda (1980), San-Fransiskoda va Chikagoda (1981), Madridda (1985), Lyuk-

semburgda (1987), Hamburgda (1992) bo‘lib o‘tdi. Hermann Hesse adabiy merosidan bugungi kunda o‘zbek kitobxonlari ham baxramand bo‘lmoqdalar. 2013- yilda asarlari dunyoning har burchagida sevib o‘qiladigan, chizgan rasmlari zavqlanib tomosha qilinayotgan Hermann Hesse tavalludining 136 yil to‘lishi hamda vafotining 51 yillik yubileyiga bag‘ishlangan Hermann Hesse kunlari, kongreslar, tadbirlar, konferensiyalar allaqachon keng ommaga havola etilmoqda. Hermann Hesse o‘zini butun ijodini “Ma’naviyatimning tarjimai holi” deb ta’riflaydi. Herman Hesse ijodiga qiziqish bildirgan adaboyotshunos olimlar juda ko‘plab topiladi. Xususan Akmal Saidov o‘zining Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish nomli asarida H.Hessega “Muhabbatsiz mutolaani gunoh deb bilgan adib” deya ta’rif beradi [Saidov, 2020; 187]. “Adabiyot va san’at voqelikni obrazlar vositasida aks ettirar ekan, har bir asarda tasvirlangan narsa, predmet yoki ishtirok etuvchi shaxslar keng ma’noda obraz deyiladi” [Xotamov&Sarimsoqov, 1983; 59]. Ammo, shunga qaramay, obraz termini adabiyot va san’atda birmuncha chegaralangan ma’noda- faqat insonga nisbatan qo‘llaniladi. Obraz termini xuddi ana shu ma’noda adabiyot va san’atdagi obrazlilik tushunchasining eng muhim, eng o‘zak qismini tashkil etadi. Shuning uchun ham adabiyot va san’atdagi qolgan barcha narsalar inson obrazi uchun xizmat qiladi.

Demak ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllangan, uning badiiy to‘qimasida aks etgan, ma’lum g‘oyani tashuvchi inson hayotining konkret va ayni paytda umumlashgan tasviri obraz deb ataladi. Obraz deb, insonlarning ichki va tashqi dunyosini, voqea-hodisalarning, o‘simlik va jonivorlarning, tabiat manzaralarining umumlashtirib va aniqlashtirib tasvirlangan, muayyan g‘oyaviy-estetik vazifani bajaradigan kartinasiga aytiladi. “Ijodkor o‘zi yaratgan obrazlarni ham hayotiy qonuniyat, ham san’at va adabiyotdagi qonuniyatlar vositasida boshqarib boradi” [Xotamov&Sarimsoqov.,1983; 43].

Obraz san’at va adabiyotni harakatga keltiruvchi asosiy tushunchalardan biridir.

Obraz-personaj

Obraz-xarakter

Demak, yozuvchi asar g‘oyasining rang-barangligini oshirish maqsadida obraz vositalardan keng foydalanadi. Quyida biz ham H.Hessening “Cho‘l bo‘risi” romanidagi bir necha obrazli vositalar va ularning tarjimadagi ifodasi haqida fikr yuritmoqchimiz. Buning uchun, dastavval bir necha obrazli vositalar haqida tushuncha hosil qilib olmog‘imiz lozim. Bu tushunchalarga aniqlik kiritish maqsadida biz yana manbalarga murojat qilamiz. Quyidagi tavsiflarni Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati hamda hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘atidan keltiramiz: alliteratsiya- (lot, aol- old, -ga+litera-harf). Misralar undagi so‘zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishi.

“Antiteza- (gr. Antithesis- qarama-qarshi qo‘yish)-tazod, qarshilantirish” [N.Xotamov&B.Sarimsoqov,1983; 56]. Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat uslubiy qo‘llanish.

Litota (gr. litotes-oddiylik) litota, kichraytirish, narsa-hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni bo‘rttirib-zaiflashtirib tasvirlash.

Oksimoron (gr. oxsymoron- zakiy nodon so‘zidan olingan) badiiy ko‘chim tur-

laridan biri bolib, tarkibidagi qarama-qarshi ma'noli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma'noni keltirib chiqaradi. Oksimarondagi manashu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi. Qiyoslash narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umiylikka, o'xshashlik esa bo'lgan boshqa narsa-hodisa yoki tushuncha bilan chog'ishtirish. Ko'pincha badiiy asar nomlari ham oksimoron asosida qo'yiladi. Masalan "Tirilgan murda", "Barhayot o'liklar", "Cho'l bo'risi" kabi.

Metafora (gr.metaphora-ko'chirish so'zidan) ikki narsa o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim.

Metonimiya (gr.metonamado-qayta nomlash so'zidan) ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim.

Jonlantirish badiiy tasvir usullaridan biri bo'lib, jonsiz yoki mavhum narsalarda insonga xos xususiyatlarni, ya'ni jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash.

Ushbu maqolada ushbu ikki asar til va poetik uslublar nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilinadi.

1. Lingvopoetika nazariyasi asosida tahlil. Lingvopoetika til vositalarining estetik funksiyasini, ularning badiiy matndagi roli va ma'nosini tahlil qiluvchi fan sohasidir. Hesse asarlarida metafora, simvol, inversiya, parallelizm kabi poetik vositalar keng qo'llaniladi. Til muallif estetik qarashining, ruhiy holat va ichki kurashlarning ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi.

2. "Cho'l bo'risi" romani: ziddiyatlar va ramziyliklar. "Cho'l bo'risi" romanida bosh qahramon Hari Hallerning ichki dunyosi, uning ikkiyuzlamachi tabiati – insoniylik va yovvoyilik, madaniyat va instinktlar o'rtasidagi ziddiyat orqali yoritiladi. Romanda bo'ri obrazi ramziy xarakterga ega: u insonning hayvoniy tabiatini ifodalaydi. Til jihatdan Hesse turli stilistik usullardan foydalangan: ichki monologlar, ko'p qatlamli semantik birliklar, ironiya va ritorik savollar orqali qahramon ruhiy holati ochib beriladi.

Namuna: "Men, ikki shaxsga bo'lingan odam... bu shaxslar bir-birini inkor qilardi, biroq ikkalasi ham men edim."

Bu jumlada ichki ziddiyat sintaktik parallelizm va semantik oppozitsiya orqali ifodalangan.

3. "Bo'ri" hikoyasining poetik tuzilmasi. "Bo'ri hikoyasi" Hesse ijodining kichik hajmli, ammo mazmunan chuqur namunalaridan biri. Bu hikoyada ham bo'ri obrazidan foydalanilgan, biroq u bu safar tashqi muhit ta'siri ostidagi ichki kechinma ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Hikoya tilida lirizm, sokin ohang, tabiat tasvirlari, fonetik uyg'unlikka alohida e'tibor berilgan.

Namuna: "U uzoq qaradi, qorong'ulikdagi ko'zlarida na g'azab, na qo'rquv bor edi – faqat tushunmovchilik..." [Hesse, 1877; 76].

Bu parcha hissiy rang-baranglikni fonetik vositalar bilan ifodalashga xizmat qilgan.

4. Qiyosiy tahlil. Asarlar asosiy obraz til vositalari ramziy ma'no ichki ziddiyatlar asosiga qurilgan bo'lib, Cho'l bo'risi romanidagi bosh qahramon Hari Haller (inson + bo'ri) ritorik savollar, metafora, ichki monolog, yovvoyilik, erkinlik, shax-

siy izolyatsiya, insoniylik va hayvoniylik hislatlari orqali tasvirlangan. Bo'ri hikoyasi Bo'ri - (tabiiy mavjudot) tabiat tasvirlari, lirik til, fonetik uyg'unlik tashqi dunyoga yotlik, begonalik tashqi ta'sirlar va ichki tinchlik holatlari orqali badiiy tasvirga ega.

Hesse asarlarining o'ziga xosligi shundaki, ularning deyarli barchasida kuchli avtobiografik komponentga asoslanganligida, hamda ichki ruhiy kechinmalarining ochiq-oydin, ravon ifodasida. Uni o'rab turgan muhitga, atrofida doimiy sodir bo'layotgan siyosiy o'yinlarga bo'lgan o'z nafratida, yoki voqealikka bo'lgan munosabatida, uni qay darajada idrok etishida nomoyon bo'ladi. Har bir ijodkorning o'ziga xos uslubini o'zga tilda qayta tiklash tarjimaning asosiy shartlaridan biridir. Misol uchun "Cho'l bo'risi" ning o'zidanoq buning isbotini ko'rishimiz mumkin. Tarjimon asarning g'oyaviy-estetik qimmatini to'la nomoyon qilishga harakat qilib, emotsional xususiyatga ega, personajning ichki his-tuyg'ularini, hayajon va kechinmalarini badiiy ifodalaydigan, original bilan bellasha oladigan leksik birikmalar topa olganki, natijada, Hesse uslubiga xos ruhga murojaat, ta'sirchanlik, qahramonlar ichki kechinmalarining ko'tarinki, romantik ruhda aks etishi, fikr va tuyg'ularning ekspressiv bayon qilinishi tarjimada ham saqlangan. **Originalda:**

"Wer die anderen Tage geschmeckt hat, die bösen, die mit den Gichtanfällen oder die mit jenem schlimmen, hinter den Augäpfeln festgewurzelten, teuflisch jede Tätigkeit von Auge und Ohr aus einer Freude zur Qual verhexten Kopfwahl, oder jene Tage des Seelensterbens, jene argen Tage der inneren Leere und Verzweiflung, an denen uns, inmitten der zerstörten und von Aktiengesellschaften ausgesogenen Erde, die Menschenwelt und sogenannte Kultur in ihrem verlogenen und gemeinen blechernen Jahrmarktsglanz auf Schritt und Tritt wie ein Brechmittel entgegengrinst, konzentriert und zum Gipfel der Unleidigkeit getrieben im eigenen kranken Ich- wer jene Höllentage geschmeckt hat, der ist mit solchen Normal- und Halbundhalbtagen gleich dem heutigen sehr zufrieden, dankbar sitzt er am Ofen, dankbar stellt er beim Lesen des Morgenblattes fest, daß auch heute wieder kein Krieg ausgebrochen, keine neue Diktatur errichtet, keine besonders krasse Schweinerei in Politik und Wirtschaft aufgedeckt worden ist, dankbar stimmt er Saiten seiner verrosteten Leier zu einem gemäßigten, einem leidlich frohen, einem nahezu vergnügten Dankpsalm, mit dem er seinen stillen, sanften, etwas mit Brom betäubten Zufriedenheitshalbundhalbgott langweilt, und in der laudicken Luft dieser zufriedenen Langweile, dieser sehr dankenswerten Schmerzlosigkeit sehen die beiden, der öde nickende Halbundhalbgott und der leicht angegraute, den gedämpften Psalm singende Halbundhalbmensch, einander wie Zwillinge ähnlich" [Hesse, 1976, 89].

"...Kimki agar boshqa- ma'shum, podagra xuruj qilgan yoki undan ham yomonroq, ko'z bilan quloqning harakatini rohatdan azobga aylantiradigan bosh og'rig'i yoki ruhsizlik, botiniy bo'shliq va tushkunlikdan iborat behuzur kunlari bunday kunlarda esa siz bilan bizga vayron qilingan va butun shirasi hissadorlik jamiyatlari tomonidan so'rib olingan yer-u ko'k, toqat qilib bo'lmaydigan, faqat o'zini o'ylaydigan soxta va quruq insoniyat olami va madaniyat deb ataladigan bir narsa xuddi bozordagidek yalt-yult qilib, qustiradigan doridek har qadamda ishshayib uch-rab turadi-kimki bunday do'zaxoa kunlari boshidan kechirgan bo'lsa, bugungidek

o'rtacha, mo'tadil va yarim-yorti kunlardan, albatta, juda mamnun bo'ladi va iliqqina pechka atrofida o'tirvolib, tonggi ro'znomalarni o'qiydi va bugun ham harqalay urush-purush boshlanmaganini, boshqa yangi diktatura ornatilmaganini, siyosat va iqtisodiyotda boshqa o'taketgan razolat, palidlik fosh etilmaganini bilib oladi va qotib qolgan ijod va ilhom sozini shukronalik bilan qo'lga olib, uni o'rtamiyona, bir navi pardalarda shodon sozlay boshlaydiki, u bilan o'zining sokin, mayin, yoqimli va tabiatdan bir oz sarmast mamnunligining yarim-yorti Xudosini zerikdirib yuboradi va mana shu zerikishning, mana shu rahmatga loyiq shodonlikning ma'yus va tushkun kayfiyati uzra ikkovlon- zerikkanidan mudrayotgan yarim-yorti Xudo va sochiga oq oralagan, past, bo'g'i, xira ovoz bilan ilohiy qo'shiq kuylayotgan yarim-yorti Inson bir-birlariga xuddi egizaklardek qarab turishadi" [Hesse, 1976; 87]. Ushbu jumladagi „Gichtanfällen“ tarjimada “podagra” –(bo'g'inlarni zirqiratib og'ritadigan kasallik) deb tarjima qilingan. Qahramonimiz Harri Haller ana shu kasallik bilan uzoq yillar davomida og'rinib kelardi. Ana shu insonga tinimsiz azob beruvchi og'riqdanda yomonrog'i hissadorlik jamiyatining chirkin siyosati, hamda ularning fosh qilinmay qolganligini shodon nishonlab kelayotgani Harrining ularga bo'lgan nafratini yanada kuchaytiradi. Orginaldagi “*verrosteten Leier*” erkin so'zlar birikmasi tarjimada ham o'zining ma'nolarini saqlab qolgan. Uni so'zma-so'z tarjima qilsak “zanglab qolgan cholg'u asbobi, musiqa asbobi” dir. Ammo tarjimon so'z tanlashda o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, uning o'rniga ko'p ma'noli, badiiy uslubga xos “qotib qolgan sozini” so'zini maqul ko'rgan, natijada, tarjimaning obrazlilik, asar qahramoni nutqining estetik qimmati va ekspressivligi oshgan. Tarjima qilishdan maqsad tildan-tilga so'zlar tarjimasini ko'chirish emas, balki ularning mag'zida yashirinib yotgan ohangni ro'yobga chiqarishdir. Buni to'g'ri anglagan mutarjim ish jarayonida ko'p hollarda asl nusxa ma'nosini yoritish uchun ba'zan gaplar tuzilishini o'zgartirish, ba'zan so'zlarni tushirib qoldirish yoki qo'shishdek hollardan cho'chimagan.

Milliy koloritning bir bo'lagi realiyalar tarjimashunoslikda chuqur o'rganilgan. “Realiya” asli lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, (realis-e; Pl realia), ayrim olimlar uni ba'zan “БЭЛ” (без эквивалентная лексика yoki “экзотическая лексика”), ya'ni ekvivalenti bo'lmagan so'zlar deb atashadi. Leksikologiya va stilistika predmetiga oid *varvarizmlar* ham ana shu xos so'zlar guruhiga kiradi. Ob-havo (metrologiya) va boshqa atmosfera hodiasalarini anglatuvchi, geografik muhitga dahldor so'zlar, bir xalqning turmush-tarzi, madaniyati, san'ati, udum va urf-odatlariga xos xususiyatlarni ifodalovchi, ijtimoiy-siyosiy va harbiy hayotga oid so'z va iboralar ham realiyalarga kiradi [Abdullayeva, 2012; 70].

“Cho'l bo'risi” asaridagi geografik, etnografik va ijtimoiy-siyosiy realiyalarning tarjimada qayta tiklanishini M. Akbarov tarjimasidan kelib chiqib, tarjima prinsiplari asosida yoritishga harakat qilamiz. Realialar tarjimasining prinsiplaridan biri transliteratsiya va analogdir. Bunda asosiy mushkullik tarjima qilinayotgan tilda xos so'zlar ekvivalentining yo'qligidir. Shu bois, realialarni o'zga tilda tiklash uchun tarjimondan mahorat bilan o'ta ehtiyitkorlik ham talab qilinadi.

“Cho'l bo'risi” asarida pul birligi “*Mark, taler*” kabi realiyalar uchraydi. “*Mark*” hamda “*taler*” o'zbeklar maishiy hayotida uchramaganligi bois izoh talab qiladi. Bu

realiyalar asardagi davr ruhini anglatish barobarida, o'sha davrda Germaniyaning o'zga davlatlar bilan bo'lgan munosabatlari to'g'risida ham tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. "*Taler*" – eski nemis kumush tangasi.

Realialarning asosiy guruhini ijtimoiy-siyosiy hayotdagi murojaat formalari tashkil qiladi. Murojaat formalariga turli faxriy va harbiy unvonlar, lavozimlar, odatdagi xushmuomala va emotsional-ekspressiv mazmunga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Asardagi ijtimoiy-siyosiy hayotga doir "*Pastor, guvernant, senyor*" kabi murojaat formalari uchraydi. Bu murojaatlar milliy xususiyat ham kasb etadi va ular realiyalar tarjimasi printsiplaridan kelib chiqib tarjima qilinmaydi ba'zilar (*"pastor"* so'zidan tashqari "*Pastor*"– diniy unvon, asosan cherkov xizmatida evangelist ruhoniylar uchun ishlatiladi.) hech qanday izoh ham talab qilmaydi. Asar tarjimasida mutarjim *senyor* murojaat formasiga ham alohida izoh berib o'tgan, aslida esa bu murojaat formasi hechqanday izoh talab qilmaydi o'quvchi tomonidan. Chunki *senyor* –janob ispanlarga mansub ekanini va *her, frau, froylayn* murojaatlari nemislarga mansub ekanini bugun farqlash unchalik qiyin emas, chunki ular tarjima va kino san'ati orqali o'quvchilar ma'naviy olamiga allaqachon kirib kelgan. Bu o'zbek xalqining G'arbiy yevropa mamlakatlari xalqlari bilan moddiy, madaniy hayotining yaqinlashuvidan, iqtisodiy-siyosiy aloqalarning xalqimiz ma'naviy dunyosini boyitayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari asarda kelner kabi kasb-korni anglatuvchi realiyani ham uchramiz, uni tarjimon Germaniyada va ba'zi boshqa mamlakatlarda restoran xizmatchisi deya ta'rif bergan, hamda kommivoyajyor-xususiy korxona yoki firma mollaridan nusxa ko'rsatib, shaharma-shahar buyurtma to'plovchi vakil, gumashta, *kabalero-kavaler, yigit, xushtor, oshiq* (isp), *shtudiydnrat*–Olmoniyadagi to'liq o'rta maktab muallimining unvoni, martir–din-e'tiqod yo'lida halok bo'lgan nasroniy, kurtizan ayol–yuqori tabaqalar doirasida o'ralashib yuruvchi suyuqoyoq xotin, rekrut–harbiy xizmatga chaqirilgan yangi askar kabi yana bir qator realialarni uchratishimiz mumkin.

Shuningdek, asarda juda ko'plab geografik joy nomlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, *Stahlhelm* "Po'lat dubulg'a"–Hesse Bazelda o'tkazgan ikki qish fasli chog'ida borib turgan, baliq bozori yonida joylashgan bar–restoran, *Gubbio* "Gubio"–Markaziy Italiyadagi shahar, *Garten Gethsemane* "Getsemane"–Quddus yaqinidagi bog', Iso payg'ambar bandi qilingan joy, *Schwarzen Adler* "Cho'l burguti"–Tsyurixdagi mehmonxona nomi, Odeon "Odeon-Bar"–Tsyurixdagi "Café Odeon", 1911 yildan beri mavjud. Mazkur qahvaxona bir zamonlar yozuvchilar, musavvirlar hamda muhojirlar uchrashib, diydorlashadigan joy sifatida mashhur bo'lgan, *Alten Franziskaner* "Keksa fransisklik rohib"–Tsyurixdagi mehmonxona nomi, *Balaces* "Balans"–Tsyurixdagi mehmonxona nomi, *Cesil-Bar* "Sesilbar"–Tsyurixda joylashgan bar nomi, endloses Fegefeuer "A'rof-mahshargoh"–katoliklar afsonalarida: jannatga kirishdan oldin o'lganlarning joni gunohlardan poklanadigan joy va h.o.

Lekin tarjima ishining sifatiga soya solib turgan nuqsonlardan ham holi emas. Ma'lumki, nemis va o'zbek xalqi har xil geografik va tarixiy sharoitlarda yashaydilar. Ularning har biri o'zlarining uzoq tarixiga ega. Bu xalqlarning madaniyati, urf-odat-lari, turmush tarzida juda ko'p o'zgachiliklar mavjud. Shu tufayli tarjima jarayonida milliylikni yoritishda doim ham qulaylik tug'ilavermaydi. Biroq shunga qaramasdan,

asl nusxadagi milliy ruhini saqlab qolish tarjimashunoslikda asosiy masala hisoblanadi. Umuman “Tarjima, u qaysi tildan ag‘darilayotgan bo‘lsa, o‘sha xalq madaniyatidagi milliy an‘analarni saqlashga yordam beradi” [Abdullayeva, 2012; 75]. Masalan, personajlar nutqida uchrovchi, milliy koloritga mansub leksemalar “*karnay*, *nay*, *qalpoq*, *rido-jubbasi*,” (ma‘nosi 1. Shayxlar, umuman ruhoniylar yelkasiga yopinadigan choyshabsimon yopinchiq, libos; darvishlarning ustki kiyimi. Masalan: Ba‘zi burchaklarda qora *rido* kiygan rohiblar kitob varaqlar, u yer bu yerda olimlar qo‘lyozmalarga tikilishib o‘tirardi. H.G‘ulom, “Kuba haqida hikoyalar”. Ufqni o‘z gavdasi bilan to‘sgan past-baland tog‘lar qop-qorayib, *rido* kiygandek silliq ko‘rinadi. Shuhrat, “Shinelli yillar”. 2.ko‘chma ma‘noda qorong‘ilik, zimiston, qora tun. Ey yiroqlar erkasi, sen lutf et-u yonimda qol, Jismu joningga bu sevgim bo‘lmasa og‘ir *rido*! A.Qahhor, “Oq o‘rik”, Kellar qora *rido* kiygan tun, sukunatning qushlari suyar. Sh.Rahmon, “Yurak qirralari”.) *sharob*, *kosa* kabilar nemislarning milliy hayotida uchramaydi. “*Burg‘u chalayotgan Janosso,uning yangi qalpog‘ini qo‘lida tutib*,” Janossoning “*qalpoq*” kiyib yurishi qanchalik kulgili bo‘lsa, saksofonchi Pabloning “*karnay*” chalishi ham shunchalik g‘alati tuyulishi shubxasiz. “Cho‘l bo‘risi” asarida uchraydigan realiyalar, ya‘ni musiqa asbobi “das Horn”ning “*karnay*” deb, Haller nutqida ko‘p bora uchrovchi “der Wein” realiyalarining “*sharob*” deb o‘girilishi ham o‘rinli emas. Tarjimada har bir xalqning o‘ziga xosligi, milliy xususiyatlari to‘liq aks ettirilishi kerak. Bizningcha “*karnay*” o‘rniga “*burg‘u*” deb berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki “*das Horn*” shakl jihatdan “*karnay*”dan tubdan farq qiladi. Musiqa asbobi “*karnay*”, kiyim-kechaklardan “*qalpoq*” va “*rido-jubba*”, ichimliklardan “*sharob*”, idish-tovoqlardan “*kosa*” bari sharq xalqlari madaniy-maishiy hayotiga doir bo‘lib, o‘ziga xos milliy xususiyat kasb etadi.

Xalqlarning o‘ziga xos milliy xususiyatlari faqat uning kiyim-kechagi, buyumlari, iste‘moldagi ovqatlari yoxud yurish-turish va tilida uchragan hikmatlarning o‘ziga xosligi bilan belgilanmaydi, aslida milliylikni o‘sha xalqning ong darajasi, ruhiyasi, psixologiyasi, tarixi, milliy an‘anasi, urf-odat, muomala va munosabatlari, o‘zaro murojaat va dunyoqarashlaridagi o‘zgachaliklarni ham nazarda tutib tekshirishkerak bo‘ladi. Buning uchun mutarjim ikki tilni mukammal bilishdan tashqari, ikki xalq maishiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, adabiyoti va san‘ati, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, davlat tuzumi, o‘sha xalqlarning davr bilan bog‘liq qiziqishlarini ham bilishi zarur. Tarjimonda yuksak saviya, iste‘dod, badiiy mahorat ham bo‘lishi darkor. Ammo ekvivalenti bo‘lmagan, milliy tushunchalarni tarjimada berishda mushkullik tug‘ilganda, ularni ifodalashning eng effektiv yo‘llaridan biri transliteratsiya usulidan foydalanib, mazmunini pastda berishdir. Bu usul originaldagi milliylikni lo‘nda, siliq holda qayta tiklaydi. Misol uchun: Harri nutqida uchrovchi “*frak*” –oldingi etagi qisqa, orqa etagi uzun erkaklar kiyimi realiyasini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari asar tarjimasida “*dekol‘te*” realiyasi-ayollar ko‘ylagining chuqur o‘yilgan yoqasi va shunday yoqali ko‘ylak deya ta‘rif bergan mutarjim. Vaholanki, bu so‘z milliy ruhni berishdan tashqari, Harri yashagan davr ruhini ham bildiradi, chunki “*dekol‘te*” ayollar kiyimi bo‘lib, bu roman yozilgan paytda Germaniyada asosan bal va bazmlar uchun mo‘ljallangan ko‘ylak hisoblangan. Mutarjim “*frak*” va “*dekol‘te*” realiyalarini

tarjimada aynan transliteratsiya usulidan foydalanib, o'zbek milliy hayotida bunday so'zlar uchramasligini inobatga olib, o'zbek tiliga ag'dargan.

Tarjimashunoslik ilmida uslub yoki mazmunga sodiqlik masalasi hamon baxss-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ushbu masalani aynan Hermann Hessening "Cho'l bo'risi" asari tarjimasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Murakkab ergashgan qo'shma gaplar adib ijod uslubining karakterli xususiyatlaridan biridir. "Cho'l bo'risi" asaridagi murakkab ergashgan qo'shma gaplarni tarjimon M. Akbarov kito-bxonga tushunarli tarzda yetkazish uchun uni bir qancha qismlarga bo'lib, soddalashtirib o'girip asar mazmuniga sodiq qolgan. Bu tarjimonning mahoratidan dalolatdir. Chunonchi:

Es ist ja dem Gottbesessenen sehr wohl möglich, den Verbrecher zu bejahren, und ebenso umgekehrt, ihnen beiden aber, und allen anderen Unbedingten, ist es unmöglich, auch noch jene neutrale laue Mitte, das Bürgerliche, zu bejahren.

Tarjimasi: Tangrini astoydil sevgan banda vaqti kelsa, jinoyatchiga nisbatan ham ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin. Va aksincha, boshqa barcha cheksizlikka da'vat etilganlar, o'sha betaraf davra –burjuaziyani maq'qullashlari amri maholdir.

Ein Friedhof war unsere Kulturwelt, hier waren Jesus Christus und Sokrates, hier waren Mozart und Haydn, waren Dante Goethe bloß noch erblindete Namen aus rostenden Blechtafeln, umstanden von verlegenen und verlogenen Trauernden, die ihnen einst heilig gewesen waren, die viel dafür gegeben hätten, auch nur wenigstens ein redliches, ernstes Wort der Trauer und Verzweiflung über diese untergegangene Welt sagen zu können, und denen statt allem nichts blieb als das verlegne grinsende Herumstehen an einem Grab.

Tarjimasi: Qabriston bizning madaniy dunyomiz edi. U yerda Iesus Xristos (Iso payg'ambar) va Suqrot yotardilar, Motsart va Haydn yotardilar, Dante va Gyote yotardilar. Zang bosgan tunuka taxtalarga muhrlangan, shuhrati so'ngan yana qanchadan-qancha nomlar bor edi bu yerda, ularning atrofida esa, agar ana shu o'zlari uchun bir paytlar muqaddas bo'lgan tunuka taxtalarga ishona olganlarida, uni qimmat oladigan, mana shu o'tgan dunyo haqida qayg'u va tushkunlikning ozgina bo'lsa-da, halol va jiddiy so'zini ayta olishi qimmat oladiganlar hijolatli va soxta nigoh bilan to'planib turardilar, endi ularga qabr tepasida hijolat-la ishshayib turishdan boshqa ish ham qolmagandi...

Tarjimonning yutuqlaridan yana biri shuki, u mifologiyaga xos rivoyatlarni, biologik atamalarni, ingliz va lotin tilidagi frazalarni, qadimgi hind tili-Sanskritda berilgan so'zlarni ifodalshda, asar g'oyasini ochib berishda interpretatsiya usulidan foydalanadi. Jumladan *Terpentin*-ninabargli daraxtlar tanasidan olinadigan quyuq shirali yelim bo'lib, uning tarkibidagi terpentin moyidan bo'yoqlarni eritish vositasi sifatida hamda uy-joylarni tozalashda foydalaniladi. *Borobudur*-Markaziy Yava orolida joylashgan Budda ibodatxonasi, *Ofeliya*-Shekspirning „Hamlet“ fpjiasidagi obraz, Don Kixot-Migel de Servantes Saavedra(1547-1616) romanining qahramoni, *Kleptoman*- o'g'irlikka moyillikdan iborat ruhiy kasallikka chalingan kishi, Shizofreniya-ruhiy kasallikning bir turi, Gallyutsinatsiya-yo'q narsalrning ko'rinishi, eshtilishi va sezilishi, Molox-afsonalarga ko'ra, tangri, iloh nomi, unga odamlarni qurbon-

likka keltirishgan. Shuningdek, berahm, beshafqat, yebto‘ymas ochofat, balo-qazo ma’nosida ham tushuniladi, Yeretik-umumiy tartib-qoidalarga, odatdagi qarashlarga hilof fikr yurituvchi, ish tutuvchi kishi, bid’atchi, Jannat qushlari-chumchuqsimonlar turkumiga mansub yaltiroq patli, juda chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan qushlar. Ular sharqi-janubiy Osiyoda va Sharqiy Avstraliyada yashaydilar, Gil’diya-o‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropada yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi; shuningdek, revolutsiyadan ilgarigi Rossiyada savdogarlarning davlatiga ko‘ra darajasi yoki tabaqasi, Apostol-havoriy (Isoning afsonaviy o‘n ikki shogirdlaridan biri), Krishna-sanskrit tilida „qora“ demakdir. Afsonaviy hind podshosi, uning qahramonliklari va ishqiy sarguzashtlari haqida ko‘pgina rivoyatlar to‘qilgan, *Common sense*-sog‘lom aql (ingl), Shimmi, Vonstep, Fokstrot, Boston, Tango-raqs turlari (ingl), Tat tvam asi-bu sensan.

Shuningdek, asarda badiiy tarjima qimmatiga ta’sir etuvchi so‘zma-so‘zlikni ham uchratish mumkin. Ammo tarjima jarayonidagi bu jihat doim ham o‘zini oqlamaydi. Jumladan: Einzig der Humor, die herrliche Erfindung der in ihrer Berufung zum Größten Gehemmtten, der beinahe Tragischen, der höchstbegabten Unglücklichen, einzig der Humor (vielleicht die eigenste und genialste Leistung des Menschentums) vollbringt dies Unmögliche, überzieht und vereinigt alle Bezirke des Menschenwesens mit den Strahlungen seiner Prismen.

Tarjimasi: Yolg‘iz yumorgina –o‘z vazifa, burch, qismati bo‘yicha eng og‘ir, qiyin, tang ahvolga tushib qolgan, deyarli fojiali, eng qobiliyatli, biroq baxtsiz odamlarning ajoyib ixtirosi-yolg‘iz yumorgina (ehtimol, odamzodning o‘ziga xos va eng dohiyona yutug‘iyam shu bo‘lsa kerak) mana shu iloji yo‘q narsani amalga oshiradi, insoniyatning barcha qatlamlarini o‘z prizma nurlari bilan qamrab olib, birlashtiradi.

Wir Musikanten aber, wir müssen das Unsere tun, das, was unsere Pflicht und Aufgabe ist: wir müssen das spielen, was gerade im Augenblick von den Leuten begehrt wird, und wir müssen es so gut und schön und eindringlich spielen wie nur möglich.

Tarjimasi: Biz, musiqachilar esa, o‘z ishimizni qilishimiz, o‘z burch hamda vazifamizni ado etmog‘imiz lozim: odamlarning ko‘ngli shu lahza, shu daqiqada nimanı tusasa, shuni ijro etishimiz, ijro etganda ham imkon qadar soz va go‘zal hamda ta’sirchan ijro etmog‘imiz kerak.

Die Herren Generäle und Schwerindustriellen hatten ganz recht: es war nichts los mit uns „Geistigen“, wir waren eine entbehrliche, wirklichkeitsfremde, verantwortungslose Gesellschaft von geistreichen Schwätzern. Pfui Teufel! Rasiermesser!

Tarjimasi: Janob generallar va og‘ir sanoatchilar butunlay haq edilar: “ziyolilar”ga jin ham urmadi, bizning jamiyat ortiqcha, keraksiz, hayotdan uzoq hamda mas’uliyatsiz hayolparast ezma, mahmadonalar dangina iborat edi, xolos. Jin ursin hammasini! Qani ustara?!

“Muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, asliyatdan tarjima jarayonida mutarjim o‘girilayotgan tilning o‘ziga xos jihatlarini asar mazmuni va muallif uslubini imkon qadar saqlab qolishga imkon qadar harakat qilgan. Ze‘ro, tarjimon mamlakatlara-ro adabiy-madaniy, ma’rifiy aloqalarni rivojlantirishga o‘zining beminnat xissasini qo‘shuvchi ma’naviy ko‘prikdir. Bu, albatta, o‘ta mas’uliyatli, mashshaqatli, shu bi-

lan birga maroqli ishdir” [Aslanov, 2015, 45].

XULOSA

Hermann Hessening “Cho‘l bo‘risi” va “Bo‘ri hikoyasi” asarlari lingvopoetik jihatdan o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, muallif ularni inson ichki olamidagi ziddiyatlarni yoritish uchun vosita sifatida qo‘llagan. Har ikkala asarda ham bo‘ri obrazining turlicha talqini mavjud bo‘lib, ular til vositalari orqali badiiy kuchga ega bo‘ladi. Lingvopoetik tahlil Hesse tilining chuqur qatlamlarini ochib beradi va uning ruhiy-falsafiy izlanishlarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, asarlarda til va obrazlarning sintezidan yaratilgan lingvopoetik effektlar insonning o‘zligini, ichki kurashlarini va jamiyat bilan munosabatlarini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Bo‘ri obrazlari inson ruhining turli qatlamlaridagi ziddiyatlarni, o‘zlikni qidirish jarayonlarini va hayotdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatni ifodalaydi. Hesse asarlarida til vositalari orqali ifodalangan metaforik va simvolik qatlamlar, o‘quvchida chuqur fikrlash va ichki tafakkurga chorlaydi.

Shuningdek, lingvopoetik tahlil yordamida muallifning badiiy uslubi va tili-ning o‘ziga xosligi ochib berilib, bu asarlarning zamonaviy adabiyotdagi ahamiyati va o‘rni yanada ravshan bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchining asarlar bilan yanada chuqurroq muloqot qilishini ta‘minlaydi va adabiy meros sifatida ularning o‘rganilishiga yangi yondashuvlar ochadi. Natijada, “Cho‘l bo‘risi” va “Bo‘ri” hiko-yasi asarlari nafaqat badiiy asar sifatida, balki til va obrazlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abdulla, K.** (2013). *Der Granatapfel*. (Tarj. Oybek Ostonov). Akademnashr, Toshkent.
2. **Abdullayeva, R.** (1984). *Shiller adabiy merosi*. O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent.
3. **Abdullayeva, R.** (1985). *F. Shiller: Makr va muhabbat. She‘rlar, dramalar*. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent.
4. **Abdullayeva, R.** (2012). *Shiller va o‘zbek adabiyoti*. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent.
5. **Abdullayeva, R.** (2021). *Nemis-o‘zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va ilmiy asoslari*. Avtoreferat dissertatsiyasi (f.f.doktori – DSc), Toshkent.
6. **Akbarov, M.** (2015). *Cho‘l bo‘risi* (roman). Faylasuflar nashriyoti, Toshkent.
7. **Akbarov, M.** (2017). *Nemis mutafakkirlarining hikmatlari*. O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent.
8. **Aslanov, B.** (2015). *Ilmiy muzokara: Filologiya, lingvistika va pedagogika masalalari*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (B. 50–52), Toshkent.
9. **Bojenova, I. A.** (2020). *Filologiya. Lingvistika. Молодой учёный*, №42(332), Oktabr.
10. **Faizullah Jan, Syed Irfan Ashraf, Azmat Khan.** (2022). *Liberal Arts & Social Sciences International Journal (LASSIJ)*, 6(1), 70–88. <https://www.ideapublishers.org/index.php/lassij>
11. **Folker, M.** (1979). *Hermann Hesse. Sein Leben in Bildern und Texten*. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main.
12. **Folker, M.** (2002). *Hermann Hesse: Die schönsten Erzählungen*. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main.
13. **Folker, M.** (2024). *Auf den Einzelnen kommt es an*. Suhrkamp Verlag AG, Berlin.
14. **Fris, V., Vyurtle.** (2012). *Andijon shahzodasi* (tarj. Y. Egamova). O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent.

15. **Gafur, Gulom.** (2014). *Der Schelm* (tarj. Oybek Ostonov). Akademnashr, Toshkent.
16. **Heimo, Schwillk.** (2012). *Hermann Hesse*. Piper Verlag, München.
17. **Hesse, H.** (1955). *Der Steppenwolf*. Suhrkamp Verlag, Berlin.
18. **Hesse, H.** (1972). *Unterm Rad*. Suhrkamp Taschenbuch Verlag, Frankfurt am Main.
19. **Hesse, H.** (2006). *Cho'l bo'risi*. Sharq nashriyoti, Toshkent.
20. **Hesse, H.** (2010). *Jahon adiblari adabiyot haqida* (O. Sharafiddinov tarjimai). Ma'naviyat, Toshkent.
21. Hesse, H. (2025). *Hermann-Hesse-Jahrbuch Band 17*. (Herausgeber: M. Limberg, F. Michels, A. Solbach, F. Wehdeking) Würzburg.
22. Henry, Jose X. (2018). *Vidyankur: Journal of Philosophical and Theological Studies XX/I Jan/ ISSN P-2320-9429/42-53*. India
23. **Karimov, A.** (2018). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Akademnashr, Toshkent.
24. **Rahmonov, A.** (2024). *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 1(4), 244–252. <https://scienceproblems.uz>
25. Ranjit, Podder. (2017). The EDRC Journal of Learning and Teaching, Education and Development Research Council (EDRC), 192/1 East Kafrul Dhaka, Bangladesh.
26. **Saidov, A.** (2020). *Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish*. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent.
27. Satriyo, Y., Drs. Suwarno Imam Samsul, M.Pd. (2014). *Identität Jurnal Bahasa Dan Sastra Jerman, Vol. III, Nomor 1, Januari*, Universitas Negeri Surabaya.
28. **Xotamov, H., Sarimsoqov, B.** (1979). *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati*. O'qituvchi, Toshkent.
29. **Xurshid Davron kutubxonasi.** (2019). *Jahon adabiyoti va madaniyati: Hesse, Hermann – Bo'ri hikoyasi* (olmon tilidan tarjima: Mirzaali Akbarov).
30. **Yohan Volfgang G.** (2008). *Hikmatlar xazinasi*. Sharq nashriyoti, Toshkent.

REFERENCES

1. Abdulla, K. (2013). *The Pomegranate*. (Trans. Oybek Ostonov). Akademnashr, Tashkent.
2. Abdullayeva, R. (1984). *Schiller's Literary Heritage*. Uzbekistan Publishing House, Tashkent.
3. Abdullayeva, R. (1985). F. Schiller: *Intrigue and Love*. Poems, dramas. Gafur Gulom Literature and Art Publishing House, Tashkent.
4. Abdullayeva, R. (2012). *Schiller and Uzbek Literature*. National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi Publishing House, Tashkent.
5. Abdullayeva, R. (2021). *Formation, Development Stages and Scientific Foundations of German-Uzbek Literary Relations*. Dissertation abstract (Doctor of Philology – DSc), Tashkent.
6. Akbarov, M. (2015). *Steppenwolf* (novel). Philosophers Publishing House, Tashkent.
7. Akbarov, M. (2017). *Wisdom of German Thinkers*. Uzbekistan Publishing House, Tashkent.
8. Aslanov, B. (2015). Scientific discussion: Issues of philology, linguistics and pedagogy. Materials of the Republican scientific-practical conference (pp. 50–52), Tashkent.
9. Bozhenova, I. A. (2020). Philology. Linguistics. *Young Scientist*, No. 42(332), October.
10. Faizullah Jan, Syed Irfan Ashraf, Azmat Khan. (2022). *Liberal Arts & Social Sciences International Journal (LASSIJ)*, 6(1), 70–88.
11. Folker, M. (1979). *Hermann Hesse. His Life in Pictures and Texts*. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main.
12. Folker, M. (2002). *Hermann Hesse: The Most Beautiful Stories*. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main.
13. Folker, M. (2024). *It Depends on the Individual*. Suhrkamp Verlag AG, Berlin.
14. Fris, V., Vyurtle. (2012). *The Prince of Andijan* (transl. Y. Egamova). Teacher Publishing House, Tashkent.
15. Gafur, Gulom. (2014). *Der Schelm* (transl. Oybek Ostonov). Akademnashr, Tashkent.

16. Heimo, Schwilk. (2012). *Hermann Hesse*. Piper Verlag, Munich.
17. Hesse, H. (1955). *Der Steppenwolf*. Suhrkamp Verlag, Berlin.
18. Hesse, H. (1972). *Unterm Rad*. Suhrkamp Taschenbuch Verlag, Frankfurt am Main.
19. Hesse, H. (2006). *Steppenwolf*. Sharq Publishing House, Tashkent.
20. Hesse, H. (2010). *World Writers on Literature* (translated by O. Sharafiddinov). Ma'naviyat, Tashkent.
21. Hesse, H. (2025). *Hermann-Hesse-Yearbook, Vol. 17*. (Eds.: M. Limberg, F. Michels, A. Solbach, F. Wehdeking). Würzburg.
22. Henry, Jose X. (2018). *Vidyankur: Journal of Philosophical and Theological Studies*, XX/1, ISSN P-2320-9429, pp. 42–53, India.
23. Karimov, A. (2018). *Introduction to Literary Studies*. Akademnashr, Tashkent.
24. Rahmonov, A. (2024). *Current Issues of Social and Humanitarian Sciences*, 1(4), 244–252.
25. Ranjit Podder. (2017). *The EDRC Journal of Learning and Teaching*, Education and Development Research Council (EDRC), Dhaka, Bangladesh.
26. Saidov, A. (2020). *Introduction to Comparative Literature*. Gafur Gulom Publishing House, Tashkent.
27. Satriyo, Y., Drs. Suwarno Imam Samsul, M.Pd. (2014). *Identität: Journal of German Language and Literature*, Vol. III, No. 1, January, State University of Surabaya.
28. Khotamov, H., Sarimsoqov, B. (1979). *Russian-Uzbek Explanatory Dictionary of Literary Terms*. Teacher Publishing House, Tashkent.
29. Khurshid Davron Library. (2019). *World Literature and Culture: Hesse, Hermann – The Story of the Wolf* (translated from German by Mirzaali Akbarov).
30. Johan Wolfgang G. (2008). *Treasury of Wisdom*. Sharq Publishing House, Tashkent.